




O‘ZBEKISTON – BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI: KO‘P QIRRALI ALOQALAR BARQAROR VA JADAL RIVOJLANIB BORMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 30-noyabr – 2-dekabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha konferensiyasida ishtirok etish uchun ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Dubay shahriga tashrifi davomida 2-dekabr kuni Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuvda Amirliklar tomonidan Vitse-prezident Shayx Mansur Ol Nahayon, Bosh vazir o‘rinbosari, ichki ishlar vaziri Shayx Sayf Ol Nahayon, energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazrui, sanoat va ilg‘or texnologiyalar vaziri, COP28 sammiti prezidenti Sulton Ahmad al-Jobir ham qatnashdi.

Suhbat avvalida Prezidentimiz Amirliklar yetakchisi va do‘st xalqini Milliy bayrami bilan samimiy tabriklati hamda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha global sammit muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan qutladi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston bilan Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalar barqaror va jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 30 foizga oshdi, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar soni ko‘paymoqda. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi qo‘shma loyihalar portfeli 4 milliard dollarni tashkil etmoqda.

Faol muloqotni davom ettirish va bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhim ekani ta’kidlandi.

Amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va uni keng ko‘lamli strategik sheriklik darajasiga olib chiqishdan manfaatdorlik bildirildi.

O‘zbekiston Prezidenti tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari doirasida Birlashgan Arab Amirliklari investitsiya vaziri, “ADQ” xoldingi bosh ijrochi direktori Muhammad Hasan al-Suvaydiy boshchiligidagi delegatsiyani, “Amea Power” kompaniyasi raisi Husayn Al-Novaysni, “SWS” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Ahmad Al-Shamsiyini, “Air Products” kompaniyasi boshqaruvi raisi Seyfi Gasemini, “Tadweer” kompaniyasi bosh ijrochi va boshqaruvchi direktori Ali al-Daheriyini qabul qildi.

Birlashgan Arab Amirliklari investitsiya vaziri, “ADQ” xoldingi bosh ijrochi direktori Muhammad Hasan al-Suvaydiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda “TAQA” kompaniyasi rahbari Jasim Husayn Tabet va “Masdar” kompaniyasi rahbari Muhammad Jamil al-Ramahi ham qatnashdi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikdagi qo‘shma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sheriklik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Energetika sektoridagi hamkorlik tobora kengayib bormoqda. Tashrif doirasida bu yo‘nalishda “Masdar” kompaniyasi bilan Strategik sheriklik to‘g‘risida bitim imzolandi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari “Masdar” bosh ijrochi direktori Muhammad Jamil al-Ramahiya ko‘p qirrali O‘zbekiston — BAA munosabatlari rivojiga qo‘shgan shaxsiy hisssasi uchun O‘zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

“Amea Power” kompaniyasi raisi Husayn Al-Novays bilan uchrashuvda mamlakatimizda, eng avvalo, “yashil” energetika va turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohaslarida qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Kompaniyaning O‘zbekistonda faoliyat yuritish borasidagi rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

“SWS” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Ahmad Al-Shamsiy bilan uchrashuvda kompaniyaning O‘zbekiston hududlarida suv ta’minoti va suvni tozalash yo‘nalishlaridagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish, bunda xalqaro sheriklarni, shu jumladan, Fransiyaning “SUEZ” va Yaponiyaning “Marubeni” kompaniyalarini jalb qilish borasidagi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

“Air Products” kompaniyasi boshqaruvi raisi Seyfi Gasemi bilan uchrashuvda hamkorlikni, eng avvalo, yuqori texnologik tarmoqlarda yanada kengaytirishning amaliy jihatlarini mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbariga joriy loyihalarining borishi va yangilariga tayyorgarlik holati taqdimot qilindi.

“Tadweer” kompaniyasi bosh ijrochi va boshqaruvchi direktori Ali al-Daheriy bilan uchrashuvda amirliklar kompaniyasining O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish, bunda ilg‘or texnologik yechimlarni joriy qilish rejalari ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.



VODOROD ENERGETIKASI

O‘XSHASHI YO‘Q KELAJAK LOYIHASI

O‘tgan haftada mamlakatimizning muqobil energiyani rivojlantirish sohasida tarixiy voqea ro‘y berdi. Prezidentimiz Chirchiq shahrida “yashil” vodorod ishlab chiqarib, uni chuqur qayta ishlash asosida ekologik toza mahsulotga aylantiruvchi korxona qurilishiga start berdi.



Uning ishga tushishi dunyoda birinchilardan bo‘lib “yashil” vodoroddan mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni dunyo bozorlariga yo‘naltirish imkoniyatini yaratadi.

Prezidentimiz Chirchiqda Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi ishtirokida qurilishi boshlangan korxonani “mintaqada o‘xshashi yo‘q kelajak loyihasi” deb atadi.

“Mazkur pilot loyiha doirasida respublikamizda yiliga 3 ming tonna vodorod ishlab chiqariladi va 52 megavatt shamol stansiyasi faoliyat boshlaydi. Bunda Xi-toyning yetakchi “LONGI” kompaniyasining zamonaviy texnologiyalari asosida dunyoda birinchilardan bo‘lib, “yashil” vodoroddan mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga erishamiz. Ushbu loyiha mamlakatimizning investitsiya va eksport salohiyatini yanada oshirish uchun qo‘shimcha zaxira yaratadi”, dedi davlatimiz rahbari.

Davomi 3-betda

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

TARAQQIYOT YO‘LINING HUQUQIY ASOSI

Ishbilarmonlar va investorlar bosh qonunimizga shunday qaramoqda



Bu yilgi Konstitutsiya kuni bayramimiz oldingilaridan shukuh borasida ham, mazmun-mohiyat nuqtayi nazaridan ham tubdan farq qiladi. Sababi xalqimiz muallifligida tayyorlangan yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo‘li orqali qabul qilindi.

Konstitutsiyaning yangilanish jarayonida hayotimizning barcha sohasini qamrab olgani haqida ortiqcha gapirishga ehtiyoj yo‘q. Iqtisodchi sifatida Bosh qonunimizda aksini topgan ba’zi iqtisodiy masalalar haqida qisqacha to‘xtalmoqchiman.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda asosiy o‘rinlardan birini jamiyatning iqtisodiy negizlarini belgilaydigan qoidalar egallaydi. Unda mamlakat iqtisodiyotining asosini xilma-xil mulk shakllari tashkil etishi, barcha mulk shakllari teng huquqliligi va himoya qilinishi, xususi mulk daxlsizligi masalalari muhrlab qo‘yilgan. Gap shundaki, mulk — iqtisodiy resurslar va iste’mol predmetlarini o‘zlashtirish shakli hamda bu jarayonda iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasidagi munosabat. Mulq subyektlari mulk obyektlariga ega kishilar yoki kishilar guruhi va davlatdir.

Davomi 4-betda



NUQTAYI NAZAR

SUV – BEBAHO NE'MAT

uni ortiqcha ishlatish daryo bo'yida ham isrofdir

Homidjon ISHMATBEKOV,
O'zbekiston musulmonlari idorasi raisining
birinchi o'rinbosari

Alloh taolo Yerni yashashga qulay qilib yaratib, unda suv oqizib, turli o't-o'lan, dov-daraxtlar o'stirib qo'ydi. Suv Robbimizning ulkan ne'matidir. Rangsiz, ta'msiz, hidsiz suyuqlik tanamizni tetiklashtiradi, liboslarimizni poklaydi, tashnaligimizni qondiradi, hayotimizning davom etishiga sabab bo'ladi. Bejiz suv obihayot (hayot suvi) deyilmaydi.

Yaqinda Prezidentimiz Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida faollar bilan o'tkazilgan yig'ilishda bugungi kunda dunyo bo'yicha katta muammoga aylanayotgan suv masalasiga alohida to'xtalib: "Suv — tekin emas", degan g'oyani aholiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish asosiy vazifa bo'lishi lozim", dedi.

Darhaqiqat, inson taomsiz bir-ikki haftagacha yashashi mumkin, ammo suvsiz uch kun ham chiday olmaydi. Odam tanasidagi suv o'n besh foiz kamaysa, u halok bo'ladi. Mutaxassislar fikricha, inson tanasining aksar qismi suvdan iborat. Masalan, chaqaloq og'irligining yetmish besh foizini suv tashkil etadi.

Suv — insonning hayot kechirishi uchun asosiy quvvat manbai. Bunga yana odamning poklanishi va boshqa maqsadlarda ishlatadigan suv ham qo'shilsa, uning qanchalik zarur va bebaho ne'mat ekanini oydinlashadi. Alloh taolo Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi: "...va barcha tirik mavjudotni suvdan (paydo) qilganimizni ko'rmasdirlarmi?" ("Anbiyo" surasi, 30-oyat).

Toza ichimlik suvni ehtiyojdan tashqari ishlatish va behuda oqizib qo'yish kabi holatlar uchrayotgani o'ta achinarli holdir. Ayrim davlatlarda toza ichimlik suv oltinga teng bo'lib turgan, minglab kishilar, yosh go'daklar ichimlik suv tanqisligidan aziyat chekayotgan bir sharoitda biz Alloh ato etgan shunday buyuk ne'matning qadriga yetmasligimiz noshukrlikdan bo'lak narsa emas.

Hozirgi vaqtda jami 470 million odam suv taqchilligi keskinlashgan mintaqalarda, 2,4 milliard kishi esa suv tozalash qurilmalari va drenaj tizimi orzulgicha qolayotgan o'kalarda yashaydi. Sifatli ichimlik suv yetishmasligidan jahonda yiliga millionlab inson kasallanib, nobud bo'lmoqda.

Alloh taolo barcha narsalarni bir-biriga uzviy bog'liq holda o'ziga xos o'lchovi va hisobi bilan yaratgan. Bu borada Qur'oni karimda bunday deyiladi: "Biz osmondan hisobi bilan yomg'ir suvlarini yog'dirib, Yerga o'mashirdik. Biz bu suvlarni ketkazib, sizlarni undan mahrum qilib qo'yishga ham qodirmiz" ("Mo'minun" surasi, 17-oyat).

Bu oyati karimalar orqali Haq taolo bizga Yer yuzidagi barcha narsalar, jumladan, suv ham O'zining muayyan hisobi va o'lchovi bilan yaratilganini ma'lum qiladi. Shunday ekan, suvni isrof qilishga aslo yo'q qo'yamasligimiz zarur.

Bugungi kunda musulmonlar orasida Alloh taolo ato etgan turli ne'matlar qatori suvni ham isrof qilayotgan, unga beparvo munosabatda bo'layotganlar borligi achinarli hol. Hayotimiz uchun eng zarur ne'mat bo'lgan suv isrofi hammasidan oshib tushyapti.

Suvning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymay, uni tejab ishlataylik. Farzandlarimizga ham suvni isrof qilmaslikni o'rgataylik. Bu barchamizning burch va vazifamiz ekanini aslo unutmaylik. Hozir jahonda ichimlik suv muammosi o'ta dolzarb bo'lib turibdi. Ayni paytda dunyoda bir milliarddan ortiq kishi toza ichimlik suvga muhtoj.

Suvni tejash haqida hadisi sha-



rifda bunday keladi: Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sahobalardan Sa'd roziyallohu anhu tahorat qilayotganlarida: "Ey Sa'd, bu isrof nimasi?", dedilar. Sa'd roziyallohu anhu: "Tahoratda ham isrof qilish bormi?", dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ha, agarchi oqib turgan daryoning bo'yida turgan bo'lsang ham", dedilar (Imom Ahmad va Imom ibn Moja rivoyati).

Tahoratda ortiqcha suv ishlatish isrof va mumkin bo'lmaganidan keyin qolgan narsalarni qiyoslab olavering. Ekinga ham ehtiyojdan ortig'ini ishlatish isrofdir.

So'nggi yillarda tevarak atrof, yer, suv va havoda sezilarli ifloslanish kuzatilmog'da. Buning oldini olish, tabiatni muhofaza qilib, sog'lom avlod uchun kurashish esa barchamizning burchimizdir.

Dunyoda ichishga yaroqli suv zaxirasi juda oz. Dengiz va ummonlar suvi sho'r. Chuchuk suv, asosan, tog'dagi muzliklarda jamlangan. Undan keyin daryo va ko'llar suvi ham chuchukdir. U qayta ishlanib, aholiga yetkaziladi.

Ammo hamma davlatlarda ham bunday emas. Ichimlik suv tanqisligidan qiyalayotgan ko'plab mamlakatlar bor. Bularning asosiy qismi Afrika qit'asiga to'g'ri keladi. Yog'ingarchilik, suv havzalari kamligi kabi omillar bunga sabab bo'lgan.

Alloha behisob shukri, yurtimizda ichimlik suv borasida bunday muammo-lar yo'q. Biroq soha mutaxassislari yaqin

kelajakda bizda ham kuzatilishi mumkinligini aytmoqda. Yurtimizda suv miqdori o'lchovidir. Banda ne'matning qadriga yetsa, shukr qilsa, o'sha ne'mat ziyoda qilib beriladi. Bordiyu noshukrlik qilib, isrofga yo'l qo'ysa, ne'mat tortib olinadi va o'rni azob keladi.

Afsuski, suvni isrof qilish hollariga tez-tez guvoh bo'lib qolyapmiz. Jo'mragi buzilgan suv quvurlaridan toza ichimlik suv sharillab oqib yotadi. O'sha suvdan ichadigan aholi vakillaridan birotasi: "Kel, shu jo'mrakni tuzatirib qo'yay! Axir bu suvdan o'zimiz ichamiz-ku! Shuncha suv isrof bo'lib oqib yotmasin. Bu isrofning ham so'rog'i bor", deb o'yab ko'rmay, o'sha quvur yonidan beparvolarcha o'tib ketaveradi.

Suv sharillab oqishi u yoqda tursin, hatto tomchilab oqib tursa ham isrofdir. Chunki shu tomchilar jamlansa, katta miqdorda suv isrof bo'layotgani oydinlashadi. Dunyoning ayrim joylarida insonlar zararli mikroblarga to'la, dizbakterioz, diareya va boshqa zaharlanish ko'rinishlariga olib keladigan suv ichmoqda. Shularni o'yab, ichayotgan musaffo, pok suvimiz uchun Robbimizga ko'p-ko'p shukrlar qilaylik!

Alloha hamd aytilsh, ne'matlarining shukrini ado etish banda uchun ham ibodat, ham katta mukofotdir. Anas ibn Mo'lik roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat qiladilar: "Alloh taolo bandaga kattami, kichikmi bir ne'mat bersa va banda uning shukronasi uchun: "Alloha hamd bo'lsin" desa, o'sha ne'matdan ham afzalroq narsaga erishgan bo'ladi" (Imom ibn Moja rivoyati).

Omlar Robbisi bizga ato qilayotgan chuchuk suv ne'mati haqida bunday marhamat qilgan: "O'zingiz ichadigan suvni o'yab ko'ring-al! Uni bulutlardan siz tushirasizmi yoki Biz tushuruvchimizmi? Agar xohlasak, Biz uni sho'r qilib qo'yamiz. Shukr qilsangiz-chil!" ("Voqea" surasi, 68-70-oyatlar).

Alloh taolaga bergan barcha ne'matlari qatori istaganimizdek suv ichish imkonini bergani uchun ham ko'proq shukr qilaylik! Shunda bu ne'mat yanada ziyoda bo'ladi!



INSON QADRI UCHUN

FAROVONLIKNING MUSTAHKAM POYDEVORI



Behzod RAHMATULLAYEV,
Samarqand viloyati hokimligi
tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari

Konstitutsiyamizni yangi tahrirda qabul qilish zarurati yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini samarali ta'minlash maqsadi asosida yuzga keldi. Shu bois, unda "Inson qadri uchun" g'oyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Ilgari amal qilib kelgan "davlat — jamiyat — inson" tamoyilini "inson — jamiyat — davlat" deb o'zgartirish, ijtimoiy davlat qurishdek yangi strategik maqsad belgilab berildi. Ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Ijtimoiy davlat har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolati taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Konstitutsiyamizda "ijtimoiy davlat" tushunchasi mustahkamlanishi davlatning ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va himoya prinsiplari asosida xalqchil boshqaruv tizimiga asoslanishidan dalolat beradi. Unga ko'ra, davlat aholini ishsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatlari ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda ham keskin tafovutlashuvning oldini olishga qaratilgan profilaktik asosiy vazifalarni bajaradi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqqligini ta'minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari muhim ahamiyat kasb etadi. Institutsional islohotlarimizning samarasi ijtimoiy fikrlarda namoyon bo'ladi.

Bosh qonunimizda "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik

jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi", degan norma mustahkamlandi. Unda "fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlash" huku-matning eng muhim vazifalaridan biri ekanini qayd etilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta'sirchan rolini oshirish belgilangan.

Bu esa biz davlatchiligimizni rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutidan keng miqyosda foydalanishimiz uchun mustahkam asos yaratadi.

Yangi O'zbekistonda kechayotgan keng ko'lami islohotlarning bosh maqsadi inson, xalq, millat va jamiyat farovonligiga qaratilgan bilan muhimdir. Ayni shu maqsadlarga erishishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bizga tayanch vazifasini bajaradi.

Yurtimizning har bir fuqarosi kundalik hayotida haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Bosh qonunimizdan kuch-quvvat olib harakat qilishi, unga tayanishi, huquqiy va iqtisodiy ongini yuksaltirib, farovon hayotni barpo etishda kamarbasta bo'lishi lozim.



MUNOSABAT



Poytaxtimizda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forum bo'lib o'tdi. Forum mamlakatlarining rivojlanish maqsadlari yo'lidagi erishgan natijalarini xalqaro hamjamiyatga yetkazish, o'zaro tajriba almashish, zarur tavsiyalar ishlab chiqish va tashabbuslarni ilgari surishda muhim muloqot maydoni bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro anjumaning ikkinchi bor yurtimizda o'tgani esa mamlakatimizda "Inson qadri uchun" ezu g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning xalqaro miqyosdagi yuksak e'tirofidir. Biz tadbirda ishtirok etgan ayrim xorijiy va milliy ekspertlarning fikrlari bilan qiziqdik.

Reychel Veston ESHENBASHER,
"BMT-Ayollar" tashkilotining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy byurosi siyosiy ishtirok va yetakchilik bo'yicha mutaxassisi:

— O'zbekistonda tashkil etilgan global forum parlamentlar Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda qanday hissa qo'shishi mumkinligini tahlil qilish imkonini beradi. "BMT-Ayollar" tashkiloti mutaxassisi sifatida men yana bir bor e'tiborni gender tenglikni ta'minlash muhimligiga qaratmoqchiman. Buni BRMni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri deb hisoblayman. Gender tenglikni ta'minlash bizga zarur o'zgarishlarga erishish imkonini beradi.

Unutmashimiz kerakki, parlamentlar odamlar, fuqarolik jamiyati va saylangan mansabdor shaxslarning ovozini eshitishda, mavjud muammolarni, jumladan, ayrim BRMni aniqlashda, haqiqatan, muhim rol o'ynaydi.

Biz turli davlatlarning yondashuvlarini qanday birlashtirish va oxir-oqibat dunyodagi taraqqiyotni baholash uchun umu-



miy ko'rsatkichlardan foydalanishimiz mumkinligi haqidagi tasavvurlarimiz bilan o'rtoqlashdik.

O'zbekiston parlamenti BRMni ilgari surishda yetakchilik qilayotgani bizda katta taassurot qoldirdi.



Biz turli davlatlarning yondashuvlarini qanday birlashtirish va oxir-oqibat dunyodagi taraqqiyotni baholash uchun umumiy ko'rsatkichlardan foydalanishimiz mumkinligi haqidagi tasavvurlarimiz bilan o'rtoqlashdik. O'zbekiston parlamenti BRMni ilgari surishda yetakchilik qilayotgani bizda katta taassurot qoldirdi.

Behzod TO'XTAMURODOV,
Oliy Majlis Senati
huzuridagi Yoshlar
parlamenti raisi:

— BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining barcha yo'nalishlari butun insoniyat qatorida yoshlar hayoti va faoliyatida ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, uning ro'yobga chiqishi, avvalo, yosh avlodning farovon hayoti kafolatidir. Bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan islohotlar ham aynan ana shu global maqsadlar bilan hamohang ekanini quvonarlikdir. Xususan, so'nggi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi.

Natijada yoshlarning zamonaviy andozalar darajasida ta'lim olishi, o'zi



tanlagan kasbning malakali mutaxassisi bo'lib yetishishi, xorijiy tillarni va raqamli texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi imkoniyati kengaydi. Bu



Umumiy maqsadimiz — barcha davlatlar parlamentlariga ko'maklashish. Toki ular nafaqat tegishli qonunlarni yaratishda, balki Barqaror rivojlanish maqsadlari amalga oshirilishini nazorat qilishda ham o'z vazifasini to'laqonli bajarsin.

Konsuelo Vidal BRYUS,
BMTning O'zbekistondagi
doimiy koordinatori
vazifasini bajaruvchi:

— Men BMT vakili sifatida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha xalqaro global forumga o'z hissamini qo'shish imkoniyatiga ega bo'lganimdan juda mamnunman. Chunki BMR BMT uchun muhim kun tartibi hisoblanadi. Bu borada barcha davlatlarni qo'llab-quvvatlashimizni alohida ta'kidlamog'chiman. O'zbekiston ham jahon, ham milliy miqyosda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun barcha imkoniyatlarini safarbar qilmoqda.

Umumiy maqsadimiz — barcha davlatlar parlamentlariga ko'maklashish. Toki



ular nafaqat tegishli qonunlarni yaratishda, balki Barqaror rivojlanish maqsadlari amalga oshirilishini nazorat qilishda ham o'z vazifasini to'laqonli bajarsin.

esa yigit-qizlarning yetuk mutaxassis bo'lib, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelishiga zamin yaratmoqda. O'z navbatida, tengdoshlarimiz ham bu imkoniyatdan unumli foydalanib, barcha sohalarda sezilarli yutuqlarga erishyapti. Bugungi kunda tengdoshlarimiz nafaqat turli sohalarida faolligi, balki jamiyatni yanada rivojlantirishga oid qator qonunchilik tashabbuslarini ham ilgari surmoqda. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti esa yoshlarning bu tashabbuslarini doimo qo'llab-quvvatlab keladi. Biz bu jarayonda tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boryapmiz.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining muhim yo'nalishlaridan biri sayyoramizda ekologik muvozanatni ta'minlashdir. "Yashil makon" umum-

milliy loyihasi bu borada barchamizni jipslashtirmoqda. Ushbu tashabbusni ro'yobga chiqarishga biz ham o'z hissamizni qo'shmoqdamiz. Shu maqsadda qator umumta'lim maktablarida yoshlar parlamenti bog'larini yaratishga kirishdik. Bundan tashqari, tengdoshlarimiz o'rtaida startap loyihalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratyapmiz. Maqsadimiz yoshlarning jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yanada oshirish, g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish. Global forum bu borada ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirishda o'ziga xos imkoniyat bo'ladi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



VODOROD ENERGETIKASI



Xalqaro ekspertlar fikricha, 2050-yilgacha jahon energetikasidagi vodorod energiyasi ulushi 18 foizni, asr so'ngigga kelib 40 foizdan ko'proqni tashkil etadi. O'z navbatida, Yevropa Ittifoqi "Vodorod yo'lagi" (H₂ live) dasturini tasdiqladi va unda 2030-yilga qadar mazkur energetikasini rivojlantirish orqali atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid miqdorini 95 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

O‘XSHASHI YO‘Q KELAJAK LOYIHASI



Abdurauf QORJOV,
iqtisodiy sharhlovchi



Boshlanishi 1-betda

"O'zkiyosanoat" AJ axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, qiymati 88 million AQSH dollarini tashkil qiladigan mazkur loyiha doirasida birinchi bosqichda 2025-yilda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarga erishiladi, ikkinchi bosqichda esa 500 ming tonna "yashil" ammiak va 2,4 GVt shamol turbinalari ishga tushiriladi.

Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga kimyo sohasidagi eng oxirgi innovatsion va energiya tejamon texnologiyalarni jalb etish, shu orqali kimyo sanoati sohasini dekarbonizatsiya qilish va "yashil" texnologiyalarga o'tish, o'g'it ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanishni qisqartirish va har yili qariyb 33 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, ushbu texnologiyalarni amalda sinab ko'rgan va ularni ishlatish o'z navbatida ega mutaxassislar bazasini shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston energetika vaziri Jo'rabek Mirzamahmudovning ta'kidlashicha, hozirgi kunda juda ko'p davlatlar bu yo'nalishda g'oya, fikr, tashabbus bildirgan, ammo amaliy ish hozircha faqat ikki davlatda olib borilyapti.

Biri Saudiya Arabistonida bo'lsa, ikkinchisi O'zbekistonda boshlandi. Mazkur loyihaning mamlakatimizda start olayotgani, eng avvalo, "yashil" energiya hisobidan vodorod ishlab chiqarish imkoniyatini beradi, vodoroddan ammiak olinadi. Hozirgi kunda "yashil" energetika, "yashil" vodorod hisobidan olingan o'g'itlarning dunyo bo'zorida narxi oddiyliklarga qaraganda kamida 15-20 foiz qimmat. Bu yangi eksport bozorlarida qo'shimcha qiymat va tabiiy gazni ham tejash imkoniyati, degani.

Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining shu yil 14-sentabr kuni Dushanbada bo'lib o'tgan beshinchi maslahat uchrashuvida energiya manbalarini diversifikatsiya qilmasdan, muqobil energetika sohasiga investitsiya va texnologiyalarni jalb etmasdan, "yashil" vodorod ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymasdan turib mintaqani barqaror

muhokama qilindi. Tegishli vazirlarning uch tomonlama yig'ilishida qo'shma bayonot imzoladi. Unda qayta tiklanadigan energiya sohasida mamlakatlarning salohiyati va Yevropaga muqobil manbalardan olingan elektr energiyasini eksport qilish loyihasiga qo'shilishga tayyorlik qayd etildi.

O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov "Yashil" elektr uzatish loyihasini ishlab chiqish iqtisodiyotimiz va energetika tizimlari o'rnatidagi aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, milliy energetika sanoatini rivojlantirishga imkon beradi va biz ushbu tashabbusni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha birgalikdagi ishlarga hissa qo'shishga tayyormiz", dedi.

Ishtirokchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari, "yashil" vodorod va "yashil" ammiak ishlab chiqarish, eksport qilish imkoniyatlari hamda tegishli infratuzilmani yaratish, energiya almashinuvi sohasida hamkorlik qilish bo'yicha texnik vazifani ishlab chiqishga mas'ul qo'shma ishchi guruhi tuzishga kelishib oldi. Ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnik topshiriqlar asosida dastlabki texnik-iqtisodiy asosni tayyorlash uchun tender e'lon qilinadi. Ishtirokchilar, shuningdek, loyihani amalga oshirish uchun qo'shma korxona yaratish istiqbollari o'rganib chiqishga kelishib oldi.

Uch davlat tegishli vazirliklarining mazkur kelishuvi xorij OAVda tahlil etilar ekan, bu mamlakatlarda hali "yashil" vodorod va "yashil" ammiak ishlab chiqish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, qanday qilib ularni chetga chiqarish, yana deng, Yevropaga eksport qilish bo'yicha kelishuvlar imzolanyapti, deya ta'ajjublanganlar ham bo'ldi.

Chirchiq shahrida "yashil" vodorod ishlab chiqarib, uni chuqur qayta ishlash asosida ekologik toza mahsulotga aylantiruvchi korxona qurilishiga start berilishi bu kabi savollarga amaliy javob bo'ldi.

Vodorod haqida muxtasar tushuncha

Vodorod o'zi nima, tabiatda qanday o'rinda tutadi, "yashil" vodorod qanday hosil qilinadi, degan savollar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Shu bois, bu xususda ilmiy adabiyotlar asosida muhtasar ma'lumotlarga ega bo'lish foydadan xoli bo'lmaydi.

Kimyoviy elementlar davriy jadvalining birinchi guruhiga mansub element bo'lgan vodorod (H₂) odatdagi sharoitda rangsiz, hidsiz gaz, ta'mi yo'q. Metallarga kislotalar ta'sir ettirilganida yonuvchi gaz ajralishi XVI va XVII asrlar kimyogarlari asarlarida ko'p eslatiladi. 1766-yilda ingliz kimyogari G.Kavendish ajralayotgan gazni yig'ib tekshirib, "alangananuvchi havo" deb atadi va ana shu gaz flogiston bo'lsa kerak, deb o'yladi. 1783-yilda fransuz tadqiqotchisi A.Lavuaize suvni analiz va sintez qilish yo'li bilan uning tarkibi murakkab ekanini isbotladi. 1787-yilda esa "alangananuvchi gaz"ni yangi element deb ta'rifladi va unga hozirgi hidrogen (yunoncha hydro — suv va gennao — tug'diraman) nomini berdi. Biz ishlatadigan "vodorod" so'zini 1824-yilda rus olimi M.Solov'yev taklif qilgan.

tumanliklarining asosiy qismini tashkil etadi. Binobarin, vodorod atomi yadrosi boshqa barcha moddalar shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu shakllanish jarayoni

vodorod turli texnologik jarayonlarda, masalan, sarflangan katalizatorlardan chiqadigan oksidlarini kamaytirish orqali sof metall olish uchun ishlatiladi. Xususan, kimyoviy

bo'lgan umumiy ehtiyojning 25 foizini vodorod vositasida qondirishni maqsad qilgan. Tabiiyki, bu jarayonda uning tannarxini keskin tushirish ko'zda tutilgan.



termoyadro reaksiyasi deb ataladi. Mana shu reaksiya yulduzlarning yoqilg'isi hisoblanadi.

Termoyadro reaksiyasi natijasida vodorod avval geliyga, keyin karbonga, shundan so'ng kislorodga, undan silikonga, shundan keyin oltingugurtga va boshqa elementlarga aylanadi

jihatdan sof mis, volfram va molibden ishlab chiqarish uchun yuqori toza vodorod talab qilinadi.

Bundan tashqari, radiotexnika sanoatida vodoroddan yarim o'tkazgichli qurilmalar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Oziq-ovqat sanoatida vodorod suyuq, ya'ni o'simlik moylarini gidrogenlash uchun ish-

Tahlillar ko'rsatyaptiki, bir tomondan Yevropada, shuningdek, Osiyoda uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar natijasida vodorodni qo'llash borasida xilma-xil texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Boshqa tomondan, ushbu texnologiyalarning aksariyati o'z mohiyatiga ko'ra, ekologik toza bo'lgani uchun global iqlim isishiga qarshi kurash muhitida ularga talab kuchaymoqda.

2018-2019-yillarda Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar, AQSHning ayrim shtatlari vodorod strategiyalarini ishlab chiqqan va tasdiqlagan. Germaniya 2018-yilda avtomobilga vodorod quyadigan 180 ta shoxobcha barpo etgan va qisqa muddatda ular sonini uch-to'rt barobar oshirishni rejalashtirgan. Yaponiyaning vodorod dasturida 2030-yilga kelib 5,3 million dona vodorodli yoqilg'i elementini foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Xitoyda 2050-yilda jami ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmining 10 foizi vodorod hissasiga to'g'ri kelishi belgilangan.

Xalqaro ekspertlar fikricha, 2050-yilgacha jahon energetikasidagi vodorod energiyasi ulushi 18 foizni, asr so'ngigga kelib 40 foizdan ko'proqni tashkil etadi. O'z navbatida, Yevropa Ittifoqi "Vodorod yo'lagi" (H₂ live) dasturini tasdiqladi va unda 2030-yilga qadar uni rivojlantirish orqali atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid miqdorini 95 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

O'zbekistonning mazkur sohadagi imkoniyatlari

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi resurslardan foydalanish tendensiyasi saqlanib qolgan taqdirda qazilma uglevodorod zaxiralari 20-30 yilga yetadi. Shunday sharoitda vodorod energetikasi sohasida ilmiy tadqiqotlar qilish va ilmiy kadrlar tayyorlashga yetarli e'tibor qaratilmagani, oliy ta'lim muassasalarida bu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilmagani hamda tarmoqni rivojlantirishga oid uzoq muddatli dastur huquqi qilinmagani va tegishli normativ-huquqiy baza shakllantirilmagani ham uning rivojlanmayotgani sabablari sirasiga kiradi.

Sanoat rivojlanishi va aholi soni o'sishi ehtiyojlar oshishiga olib keladi. Uni qondirish uchun energiya ishlab chiqarish ko'paytirilishi kerak. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj qariyb 121 milliard kilovatt/soatni tashkil etadi, hozirgi paytda esa 70 milliard kilovatt/soatdan bir oz ko'proq. Global isish va atrof-muhit ifloslanishi insoniyat oldiga tiklab bo'lmaydigan jarayonlar boshlanishiga yo'l qo'yimaslik vazifalarini qo'yimoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 9-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Fanlar akademiyasining "Xalqaro quyosh energiyasi instituti" MCHJ negizida Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Uning tuzilmasida Vodorod

Nega "yashil" vodorod istiqboli energiya hisoblanadi?

Soha mutaxassislari ma'lumotlariga ko'ra, 1995-yildan Kanada jahonda birinchi bo'lib shahar transport parkida vodorod yoqilg'isidan foydalanishni boshlagan. Oradan o'n yil o'tib, bunday tashabbus Niderlandiya, Ispaniya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Islandiyada ham yo'lga qo'yilgan. Italiyaning "Enel" kompaniyasi 2010-yilda quvvati 16 MVtga teng, 17 ming tonna SO₂ moddasi atmosferaga chiqarishining oldini oladigan birinchi vodorod elektr stansiyasini ishga tushirgan.

Vodorod energetikasining hozirga qadar keng ommalashmaganiga asosiy sabablardan biri uni ishlab chiqarish tannarxi balandligidir, — deydi O'zFA Materialshunoslik instituti direktori Odilxo'ja Parpiyev. — Mavjud texnologiyalar yordamida bir birlik vodorod energiyasi olish uchun 3-4 birlik energiya sarflanadi. Masalan, tabiiy gazdan foydalanib vodorod olish uchun 1200, suvni parchalab olishga esa 1600 daraja harorat zarur.

Keyingi yillarda dunyoda vodorod energetikasini rivojlantirish va undan samarali foydalanish bo'yicha keng miqyosda ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi 2050-yilgacha yoqilg'i



rivojlantirish mumkin emas, deb hisoblaymiz, degan edi.

Shu yilning 14-noyabr kuni esa Bokuda qayta tiklanuvchi energiyani, jumladan, "yashil" vodorodni Yevropaga eksport qilish loyihasini amalga oshirish istiqbollari

Keyingi tadqiqotlar ko'rsatyaptiki, koinotda eng ko'p tarqalgan modda vodorod bo'lib, uning 74 foizini plazma sifatida Quyosh va ko'pchilik yulduzlar o'z irigining yarmini, yulduzlararo muhit hamda gaz

energetikasi ilmiy-tadqiqot markazi hamda Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi texnologiyalarini sinash va sertifikatlash laboratoriyasi faoliyat yuritmoqda.

Energetika vazirligi va institut tomonidan qator yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

— Eng avvalo, "Air Products" (AQSH) va "ACWA Power" (Saudiya Arabistoni) kompaniyalari bilan hamkorlikda vodorodda ishlashga mo'ljallangan avtosanoatni rivojlantirish, tabiiy gazdan ko'k vodorod olishda CO₂ chiqindilarini ushlab qolish, uni tabiiy gaz bilan aralashtirgan holda chet elga eksport qilish imkoniyatini o'rganish, sanoatda vodoroddan foydalanish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqish rejalashtirilgan, — deydi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti direktori Aziz Alimhammedov. — Umumiy qiymati 6 million dollar bo'lgan bu loyihalar ijrosi 2022-2024-yillar davomida ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan, O'zbekiston — Yaponiya Yoshlar innovatsiya markazi, Yaponiyaning Kyushu universiteti va Karbon-nejtral energiya tadqiqotlari xalqaro instituti bilan birgalikda tugallangan neft quduqlaridan foydalangan holda vodorod ishlab chiqarish, O'zbekiston iqlimi sharoitida zamonaaviy perovskit quyosh panellarini rivojlantirish, bug' elektrolizi va fotokatalitik asosda vodorod ishlab chiqarish loyihalari amalga oshiriladi. 2023-2028-yillar davomida tajribaviy asbob-uskunalarini xarid qilish va O'zbekistonlik yosh olimlarni o'qitish uchun Yaponiya tomonidan 500 million yen (3,5 million dollar) ajratiladi.

Yana bir yo'nalish Innovatsion rivojlantirish agentligi, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va Delaver universiteti (AQSH) bilan hamkorlikda Toshkent davlat texnika universitetining o'quv jarayonlariga "yashil" vodorod bo'yicha o'quv kursi tashkil etishni nazarda tutadi. Hozirga qadar o'quv qo'llanmalar va dasturlar ishlab chiqilib, seminar o'tkazildi.

Energetika vazirligi tomonidan Jahon banki ko'magida sohaning normativ-huquqiy bazasini yaratish bo'yicha Buyuk Britaniyaning "ARUP" kompaniyasi jalb qilingan. Ushbu loyiha doirasida vodorodni joriy qilish bo'yicha huquqiy va me'yoriy bazani takomillashtirish, standartlarni yaratish, gaz qiymat zanjiri dekarbonizatsiyasi uchun o'lchov, hisobot va tekshirish (MRV) tizimi konsepsiyasi va maqsadlarini belgilash, vodorodni sotib olish shartnomasini (HPA) loyihalash yo'riqnomasini ishlab chiqish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Innovatsion rivojlantirish agentligi axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, vodorod energetikasi texnologiyalari sohasini rivojlantirish maqsadida vodorod sohasida faoliyat yuritayotgan yosh olim va mutaxassislar xorijning yetakchi ilmiy muassasalarida stajirovka o'tashi moliyalashtirilmoqda. 2021-2022-o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat texnika universitetining "Muqobil energiya manbalari (vodorod energetikasi)" mutaxassisligi qabul kvotasi oshirildi va 3-kursdan boshlab shu mutaxassislikning 10 tasi "Vodorod energetikasi" yo'nalishiga ixtisoslashtirildi.

2022-yil 25-may kuni Vazirlar Mahkamasi vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan Vodorod energetikasi texnologiyalari sohasida vodorod olish, saqlash va tashish texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari dasturini tasdiqladi. Dasturga muvofiq, quyoshning mujassamlashgan yurug'lik oqimining issiqlik ta'sirida va katalizatorlar yordamida vodorod olish texnologiyasi yaratiladi va uning asosida 1700 darajagacha haroratda termokimyoviy usulda vodorod olish quyilmasining tajriba namunasi ishlab chiqiladi. Suvni elektroliz usulida parchalab, vodorod gazini ajratib olish jarayonida qo'llaniladigan mahalliy xomashyodan katalizator turlari yaratiladi. Vodorod gazini saqlashga mo'ljallangan mahalliy xomashyodan foydalangan holda metallgidridlar namunalari tayyorlanadi hamda ularda saqlanayotgan vodorodni ajratib olish va qo'llash texnologiyasi ushbu usul olib boriladi. Ammiak va vodorodli yoqilg'i elementlaridan foydalangan holda vodorod gazida harakatlanuvchi transport vositasining tajriba namunasi ishlab chiqiladi. "Yashil" vodorod yoqilg'isidan issiqlik va elektr energiyasini olishga mo'ljallangan tajriba-pilot qurilma tayyorlanadi.

Hozirgi kunda mazkur loyihalarini joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.



IFTIXOR

Yoshi ulug'lar bilan maslahatlashib ish tutish, ish boshlashdan oldin ularning duosini olish eng ezgu an'analarimizdan. Buning ma'no-mohiyati "Qari bilganni pari bilmas" naqlida ham yaqqol aks etgan. Azaldan xalqimiz ko'plab ezgu ishlarida ko'pni ko'rgan otaxon-u onaxonlarning maslahatlari, tavsiyalariga tayanadi.

davlatimiz rahbarining shu yil 11-martdagi "Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida viloyat, tuman va sha-

KEKSA AVLOD VAKILLARIGA DAVLAT VA JAMIYAT TOMONIDAN DIQQAT-E'TIBOR, G'AMXO'RLIK KO'RSATISHNING IZCHIL VA TIZIMLILIGI, ULARNI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH, MODDIY VA MA'NAVYI QO'LLAB-QUVVATLASH YANADA KUCHAYTIRILGANI NATIJASIDA AHOLI FAROVONLIGI OSHDI VA TURMUSH SIFATI YAXSHILANDI.



Nuroniylarga e'tibor

XALQCHIL SIYOSATNING UZVIY DAVOMI



Rustam KALONOV, "Nuroniylar jamg'armasi Toshkent shahri kengashi raisi, senator, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiya-sida ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholi-ni yordamga muhtoj qatlamlarini, nuroni-ylarni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni bartaraf etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Aslida, bu yurtimizdagi xalqparvar ishlarning uzviy davomidir. Bugungi kunda mamlakatimizda 3 milliondan ortiq nuroniy istiqomat qiladi. Ularning har biriga g'amxo'rlik qilish, salomatligini asrash alohida e'tibordir.

O'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar har yili sanatoriyalarda davolanishi, kam ta'minlangan nuroniylarning dori-darmon va ortopediya moslamalari, jarrohlik amaliyotlari xarajatlari davlat tomonidan qoplab berilayotgani, keksalarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, teatr va muzeylarga borishi, diyorimiz bo'ylab sayohat qilishi uchun yengilliklar belgilangani yurtimizda inson qadri haqiqatda ham yuksalib borayotgani anglatadi. Dunyo miqyosida davom etayotgan ziddiyatlar, pandemiyadan keyingi murakkab moliyaviy tanglik sharoitida keksalar, pensionerlari haqida qayg'u'rish har bir davlatning ham qo'ldan kelmaydi. Bugun hatto Yevropaning rivojlangan davlatlarida pensiyaga chiqish yoshi uzaytirilgani fikrimizni isbotlaydi.

Davlatimiz rahbari esa o'z lavozimiga kirishganining ilk davridanoq keksa avlod vakillariga alohida mehr ko'rsata boshladi. 2016-yil dekabr oyida "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonun imzolandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham nuroniylarimiz haq-huquqlari mustahkamlab qo'yildi. Xususan, "Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hol-larda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi, hujjatda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdor-lari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlardan oz bo'lishi mumkin emasligi", "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholi-ni ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida" ekani, "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburligi" belgilandi.

Bugun nuroniylarimiz ijtimoiy hayotda juda faol. Ayniqsa, mahallalarda ularning o'z o'imi, aytar so'zi va so'zining salmog'i bor. Ularning hayot tajribasi, ro'zg'or past-balandini yaxshi bilishi yoshlar uchun maktab vazifasini o'taydi. Shuning uchun



harlarda jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Nuroniylar jamoatchilik kengashlari, mahallalarda "Keksalar maslahati" guruh-lari tashkil etilishi ko'zda tutildi. Qarorga ko'ra, viloyat hamda tuman (shahar) hokimlari "Nuroniylar jamg'armasi bo'limlari Vasiylik kengashlari raisi etib belgilandi, jamg'armaning viloyat, tuman (shahar) bo'limlari raislariga esa hokim maslahatchisi maqomi berildi. Toshkent shahridagi mahallalarning barcha-sida "Keksalar maslahati" guruhlari tuzildi. "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyiliga

muvofiq, yoshlar har bir mahalladagi hayotiy tajribaga ega, zamonaviy fikrlaydigan faol nuroniylarga birlashtirildi. Shuningdek, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muas-sasalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'naviy-tarbiyaviy ishlariga nuroniylar yor-dam beryapti. Bu faollarimiz ta'lim muassa-salarida o'quvchilarning darslardagi ishtiroki va o'zlashtirishini o'rganyapti. Shu asosda o'qituvchilar va ota-onalarga zarur tavsiya va maslahatlar berilmoqda. Darslarga sa-babsiz qatnashmayotgan yoki muntazam dars qoldiradigan, tarbiyasi og'ir yoshlar bilan ularning xonadonlariga borib, ota-onalari ishtirokida suhbatlar o'tkazildi. Mahallalarda-gi o'rganishlar natijasida ajrashish yoqasiga kelib qolgan, ichkilikka berilgan, oilaviy ke-lishmovchiligi bo'lgan notinch oilalar aniqlanib, ularning har biriga "Keksalar masla-hati" guruhining bir nafardan a'zosi birlashtirildi.

Mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit-ni yaxshilash, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, oilalardagi kelish-movchilik va boshqa noxush holatlarning oldini olishda keksalar, o'rta va yosh avlod vakillari ishtirokida o'tkazilayotgan "Uch av-lod uchrashuvlari" ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Nuroniylarning yoshlar bi-lan ishlash tajribalarini o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovlarini o'tkazish an'anaga aylandi.

Davlatimiz rahbari qarorida nuroniy va faxriylar, ayniqsa, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalarning muammolarini o'rganish va hal etish yuzasidan ham vazifalar belgilab berilgan. Shu asosda ijtimoiy

himoyaga muhtoj nuroniylarning ro'yxatlari mahallabay tarzda shakllantirildi. O'nlab yolg'iz keksa respublikamizning turli sanato-riylarida "Nuroniylar jamg'armasi" ma'lab-lari hisobidan dam olib, sog'lig'ini tiklab keldi. Bun-dan tashqari, Toshkent shahri tumanlarida keksalar uchun bepul tibbiy ko'riklar tashkil etildi. Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida faxriylar ishtirokida sport musobaqalari uyushtirildi. Shuningdek, keksalarning respublikamiz bo'ylab sayohatla-rini tashkilalashtirish bo'yicha ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yil boshidan buyon "Nuroniylar jamg'armasi Toshkent shahri bo'limi" ma'lab-lari hisobidan 800 ga yaqin nuroniylarning Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva kabi qadimiy shaharlarga, Toshkentning diqqatga sazovor joylariga, Qozg'istonning Turkiston shahriga ziyoratlari, sayohatlari uyushtirildi. Nuroniy otaxon va onaxonlarimiz madaniy hordiq chiqarishi uchun teatrlarga tashriflar tashkilalashtirilmoqda.

Tinchlik-osoyishtalik hukm surayotgan yurtimizda yoshi ulug'larni e'zozlash, dav-lat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchay-tirish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash borasida kompleks chora-tad-birlar ko'rilmoqda. Jumladan, sohaga oid 10 dan ortiq qonun hujjati qabul qilindi, nuroniylarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Faxriy murabbiy" ordeni va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Keksalar uchun "Nuroniylar maskani" majmualari tashkil etildi, barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'liq miqdorda to'lash tartibi yo'lga qo'yildi. "Kek-

salar haftaligi" va "Keksalar uchun turizm oyiligi"ni o'tkazish an'anaga aylandi. Bunga javoban faxriylarimiz jamiyat hayotida o'z faolliklari bilan yoshlarga ibrat bo'lishga harakat qilmoqda. O'z hayotiy tajribalari, qimmatli maslahat va o'g'itlari, shaxsiy ibrat-lari bilan barcha sohalarida amaliy yordam ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentin-ing 2022-yil 15-martdagi "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning tur-mush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham ibratli ishlari, ko'p yillik tajribalarini amalga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor qa-ratilgan. Qarorda nuroniy otaxon va ona-xonlarning ayni ko'nglidagi masalalar e'tirof etilgan va bu muhim hujjat kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shishi tabiiy.

Shahrimizning har bir mahallasidagi nuroniylar orasida fidoyi insonlar bor, ular ko'pchilikni tashkil etadi. Buni mahal-lalardagi obodonchilik, yaratuvchanlik ish-laridagi ishtirokida ham ko'rish mumkin. Shahrimizning har bir maskanida "Yashil makon" aksiyasi doirasida mevali va man-zarali daraxt ko'chatlari ekilib, hududlarimiz yashilligi ta'minlanmoqda.

"Nuroniylar jamg'armasi Toshkent shahri bo'limi" tomonidan poytaxtimizda faxriylari-miz uchun "O'talar choyxonasi", "Uch avlod uchrashuvi", "Bir piyola choy ustida" kabi o'nlab tadbirlar o'tkazildi. Ularda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan nuroniylarimiz, faxriylarimiz qimmatbaho sovg'alarga bilan taqdirlandi, "Mehnat faxriysi" ko'krak ni-shoni bilan taqdirlanganlarga mukofotlar topshirildi, san'at ustalarining chiqishlari tashkil etildi. 100 yoshga to'lgan va un-dan oshgan faxriylarni tug'ilgan kunlari bilan tabriklash, Ikkinchi jahon urushi qat-nashchilarini rag'batlantirish, sport bilan shug'ullanadigan keksalarga ularning abo-nement to'lovleri, yolg'iz pensionerlarning davolanishi va jarrohlik amaliyotlari uchun ketadigan xarajatlarga qoplab berilishi kabi qator savobli ishlar uchun 2022-yilda "Nu-roniylar jamg'armasi Toshkent shahri bo'limi" tomonidan 1,814 milliard so'mga yaqin ma'lab-lar sarflandi.

Keksa avlod vakillariga davlat va jami-yat tomonidan diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik ko'rsatishning izchil va tizimliligi, ularni ijt-i-moiy muhofaza qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash yanada kuchaytirilgani natijasida aholi farovonligi oshdi va tur-mush sifati yaxshilandi.

Ota-bobalarimiz, nuroniy buvi va ona-xonalarimiz bizning borligimiz, boyligimiz, davlatimiz. Qariyalar qadr topgan xonadon va mustaqil diyorda hamisha mehr-oqibat, qut-baraka hamda tinchlik-xotirjamlik bo'ladi.



3-DEKABR — XALQARO NOGIRONLAR KUNI

ONLAYN KUTUBXONA PLATFORMASI

ko'rish qobiliyati cheklanganlar uchun imkoniyat

Yurtimizda nogironligi bor fuqarolar uchun munosib hayot tarzini shakllantirish, inkluziv jamiyat barpo etish kun tartibidagi masalalardan biriga aylangan. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham nogironligi bo'lgan yoshlar uchun qulay formatdagi axborot texnologiyalaridan, imo-ishora tili hamda muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish vazifasi belgilangan.

Toshkent shahridagi "SHAROIT PLUS" nogironlar jamoat birlashmasi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida zaif ko'ruvchi shaxslar uchun ishlab chiqilgan ochiq va bepul audiokitoblardan iborat dastlabki on-layn kutubxona — "Kitob Plus" loyihasining gibrid formatdagi taqdimoti ana shu ezgu maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlardan.

Onlayn kutubxonadan o'zbek va rus ti-lidagi turli adabiyotlar, ma'lumot va maqo-lalar o'r'in olgan. Bundan tashqari, spek-takllardagi jonli muloqot ko'rish imkoniyati cheklangan insonlar uchun qulay formatda taqdim etiladi. Kontentni muntazam yangi-lab borish ko'zda tutilgan.

Bugun ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ko'plab audiokitob platfor-malari mavjud. Ammo ularning barchasi ham foydalanish uchun to'liq imkoniyat berilmadi. Audiokitob qidirib yurardik, — deydi Ko'zi ojizlar jamiyati Chilonzor tumani

bo'limi raisi Muzaffar Po'latov. — Yangi ilovaning afzalligi shundaki, istalgan joyda mobil telefon orqali saytdagi audiokitobdan foydalanish, spektakllardan bahramand bo'lish mumkin. Gapiruvchi tizim ko'rish im-koniyati cheklanganlar uchun telefon yoki internetdan foydalanishda katta qulaylik yaratadi.

Ilovadagi barcha elementlar muqobil matnga ega. Ularning ustiga kursor belgisi qo'yilsa, vazifasi nimadan iboratligini max-sus gapiruvchi dasturlar to'liq o'qib beradi. Boshqarish ham juda oson. Bu ko'rish im-koniyati cheklanganlarga badiiy adabiyot va sahna asarlarini qulay hamda to'liq'icha taqdim etishga xizmat qiladi.

Loyiha rahbari Mirali G'iyosov audio-kitoblar tarixi, bugungi audiokitob eshitish platformalari, ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lganlar duch kelayotgan muammolar, maxsus platformaga ehtiyoj va "Kitob Plus"



loyihasi haqida so'zlarkan, jumladan, bun-day dedi:

— Brayl yozuvi kashf qilinganidan keyin ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lganlar dast-lab brayl alifbosini, ya'ni bo'rta yozuv-larni o'qib savod chiqargan. Radio va ovoz yozib olish uskunalari yaratilganidan keyin gapiruvchi kitoblar yo'nalishi yuzaga keldi hamda ko'rish imkoniyati cheklanganlar uch-un audiokitoblarni tayyorlana boshlandi. Bu dastlab AQSHda, keyin sobiq ittifoqda an-cha rivojlandi. Audiokitoblarning asosiy ta-labgori ko'zi ojizlar edi. Hozir bunday kitob-lar barcha uchun qulay mutolaa shakliga aylandi. Azaldan mavjud audiokitoblardan

foydalanish ko'rishda muammosi bo'lganlar uchun qulay emadi. Ular audiokitobdan foydalanish uchun kutubxonaga borishi, kitobni fleshka yoki diska yozdirib olishi, eshitib bo'lganidan so'ng yangi kitob uchun fleshka yoki disk ko'tarib yana kutubxonaga borishi talab etilardi. Keyinroq esa ijtimoiy tarmoqlardagi turli sahifalar, YouTube plat-formalarida ham tarqatila boshladi. Ammo bu ham masalaga yechim bo'la olmadi. Chunki kitoblar har yerda va tarqoq ho-latda edi. Hozir yurtimizda audiokitoblarni taqdim etuvchi ko'plab platformalar ma-vjud. Unda nega yangi platformaga ehtiyoj sezildi, audiokitob eshitish uchun boshqa

dasturlar ham bor-ku, degan haqli savol paydo bo'lishi mumkin. To'g'ri, turli platfor-malar orqali audiokitob eshitish mumkin. Biroq ular ko'zi ojizlarga moslashtirilmagan. Nogironligi bor insonlar gapiruvchi dastur-lardan foydalanayotganda turli muammo-larga duch keldi. Qolaversa, o'ziga qulay bo'lmagan dasturi ishlata olmagani ham inkor etolmaymiz. Ular kerakli kitobni qidirib topib, o'qib chiqolmasdi. Brayl yozuvidagi kitoblarni chop etish juda qiyin va qimmatga tushadigan jarayon. Shuning uchun ko'rish borasida nogironligi bo'lganlar yangi chiqa-yotgan adabiyotlardan hamma qatori ba-hramand bo'lmadi. Yechim sifatida o'zbek tilida nutq sintezatorini ham yaratdik. Bu orqali ko'zi ojizlar kompyuterda elektron kitoblarni bemalol o'qishi mumkin edi. Lekin bu ham masalaga to'liq yechim bo'lmadi. Shunda ko'zi ojizlarning mobil qurilmasi-ga maxsus dastur o'rnatish hamda o'zbek va rus tilidagi audiokitob, radiospektakllarni shu ilovaga joylashtirish ustida ishladi.

Mazkur loyiha sohada katta tajribaga ega rossiyalik dasturchi, "LOGOS" onlayn kutubxonasi bosh direktori Mixail Korneyev ko'magida yaratildi. Ekotizimga ega yangi platforma telefonidan eshitishni boshlagan audiokitobingizni saytda eshitishda davom etish imkonini beradi. Eshitilayotgan audio-kitobning to'xtalgan joyi eslab qolinadi. Istal-gan qurilmadan kirib kitobni qolgan joyidan tinglashingiz mumkin. Bu ko'rish qobiliyati cheklanganlar uchun katta qulaylik.

— Ayni paytda o'zbek tilidagi qariyb 600 ga yaqin audiokitob, 400 ga yaqin spektakl mavjud, — deydi Mirali G'iyosov. — Qo-laversa, yangi nashr etilayotgan kitoblar ham bor. Ularni ovozlashtirish, platformani kontent bilan to'ldirish uchun xolis ham-korlar va ijtimoiy vazifalarni zimmasiga

oluvchi biznes vakillari, davlat tashkilotlari ko'magiga muhtojmiz. Chunki platformani kontent bilan muntazam to'ldirib borish va ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxs-larning har doim hamma bilan teng axborot olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish — eng katta maqsadimiz.

Onlayn kutubxona o'ziga xos dizaynga ega. Bu dizaynda uchta asosiy element bor: kutubxonaning o'zi, kitob javoni va profil sozlanmalari. Onlayn kutubxona to'rt asosiy bo'limga bo'linadi. Bular: kitoblar, mualliflar, suxandon va janrlar.

— Istalgan muallifni tanlash imkoniyati yaratilgan, — deydi loyiha koordinatori Ab-dulaziz Salimov. — Uning asarlari to'lig'icha chiqib keladi. Janmi tanlab, unga tegishli barcha kitob bilan tanishish mumkin. Ke-yingi imkoniyat javon bo'lib, undan juda ko'p kitob joy olgan. Foydalanuvchi uchun har safar o'zi istagan kitobni qidirib topish murakkab bo'lishi mumkin. Ilovada "Kitob javoni" degan funksiya bor. Bu o'zimiz eshi-tayotgan, ko'p murojaat qilayotgan kitoblar-ni mana shu javonga qo'yish imkoniyatini beradi. Xohlagan paytimiz shu kitoblarga qaytishimiz mumkin.

Bugun yurtimizda ko'rish imkoniyati cheklanganlarning hayot sifatini yaxshilash, har bir jabhada imkoniyat yaratish, qolaver-sa, ta'lim, umuman, ijtimoiy sohada qo'llab-quvvatlash uchun turli loyihalar taqdim etilmogda. "Kitob Plus" ana shunday ajoyib loyihalardan biri bo'ldi. Yangi platforma ko'rish imkoniyati cheklanganlarga qulay-lik yaratish barobarida bilim olish huquqini ham ta'minlaydi.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

